

This is not registered version of TotalDoc Converter.
 Bo'shisiz qurilma yoki qurilma qaydiga va yiyor yirtqich bo'lib, osonlikcha tutqich bermaydi. Keksa ovchilarning ta'kidlashicha bo'rini yer tishlatish - uning yashash tarzi va tabiatini yaxshi biladigan tajribali ovchilargagini nasib qilarikan. Negaki, maxluq uzoq muddatli tayyorgarlik ma mashaqqatlari mehnatlar evaziga qo'lga kiritiladi. Tabiat bo'rilarga mustahkam jag' va muskullar, tunganmas kuch va sabr-toqat ato etgan. Ular o'z yo'llarida uchraydigan daraxt, xarsangtosh, shox-shabba uyumlari, tepalik va turli hayvonlarning bosh suyak qoldiqlarini yaxshi eslab qolishlari sababli to'dadagi bo'linib ketgan sheriklarini ham bexato topib oladilar.

Hamroqul amaki boshliq fermer qo'ychivonlari g'alladan bo'shagan maydonlardagi angordan qaytib, tog' etagidagi qo'ralarga joylashib olgan kezlar edi. Durkun qo'y-qo'zilarga yirtqichlar tez-tez oralab, cho'ponlarning tinchi buzildi. Bu noxushlikdan xabar topgan mernan Nosir amaki chorvadorlar huzuriga shoshdi. Qaddi-qomati kelishgan, tog' yo'llarida tez va ildam yuraoladigan, tabiatan kamgap va bosiq ovchi ayni kungacha yigirmadan ziyod yirtqichni yer tishlatgan. U "Niva" avtomashinasida, ba'zan qashqa samani bilan "To'rtko'z" iti hamrohligida ov qilishni yaxshi ko'radi.

Kuz boshlanib, fermerlarning soy bo'yidagi bedazor va bog'lariya yanada fayz qo'shilgan. So'lim go'sha kishiga huzur-halovat baxsh etadi. Bir chekkadagi eshik-romlari o'rnatilmagan uycha Nosir amakiga ma'qul tushdi. Bu yerdan osmono'par tog' cho'qqilariyu, adog'i yo'q bepoyon yaylovlar ko'zga yaqqol tashlanib turardi. Kech kirgan, etni junjiktiruvchi salqin shamol esa boshladi.

Biz o'tirgan mashina bilan uycha oralig'i unchalik uzoq emas. Azamat ikkimiz voqeaneing nima bilan yakunlanishini hayajonlanib kuzatyapmiz. Shu orada Nosir amaki qo'l siltagan edi, hamrohim uning paxtalik ust-boshini eltib berdi. Shu payt g'ira-shirada tepalikdan bedazor tomon bir to'p jonivorlarning chopib ketayotganiga ko'zimiz tushdi. Ularning ikkitasi yirik, o'n chog'lisi mayda yovvoyi cho'chqa bolalari edi. Beozor jonivorlar olisdanoq hidni ilg'ashdi chog'i, yurishlarini sekinlatishdi. Yo'l boshlovchi to'xtab, uy tomon o'girilgach, kelayotgan yo'lini soylik tomonga o'zgartirdi. Atrofga qorong'ilik tushib, ularni ko'zdan yo'qotib qo'yidik. Oradan ikki soatlar chamasi vaqt o'tib, allaqanday sharpa bedazor ichida ko'rinish-ko'rinnay kela boshladi. Oraliq masofa o'n-o'n besh qadam qolganida uning oq bo'ri ekanligiga ishonch hosil qildik. Kutilmaganda gumbirlagan o'q ovozi quloqni qomatga keltirdi. Nosir amaki yirtqichni aniq nishonga olgan edi. Ko'p o'tmay beo'xshov xirillagan tovush tun sokinligini buza boshladi. Biz uzoqni yorituvchi chiroqni yoqib kuzatganimizda ona bo'ri qornidan chiqayotgan pufakchalarini ko'rib hayron bo'ldik. Yakka o'q yirtqich biqiniga tegib, qornini teshib o'tgan edi. Tong yorishar-yorishmas cho'pon-cho'lqlar uning atrofini o'rab olishdi. Bo'rining qorni nimtalangan qo'y dumbasi yog'iga to'la ekan.

Vaqt peshindan oqqach, Hamroqul amaki otdan tushib, bizning dasturxonimiz atrofiga kelib o'tirdi. U o'zida yo'q xursand edi. Fermer choy ustida yana ko'pdan beri tutqich bermay kelayotgan oq yoldor bo'ri haqida gapirib berdi. Keyin esa bizni Do'lanasoy va Qurisoy tomon boshlab ketdi. Soylar ancha chuqur, egri-bugri, jarlik va qir-adirlardan iborat edi. Mashinamizni yarim yo'lida qoldirib, archazor bo'ylab yayov yurishimizga to'g'ri keldi. Azamatda rezina etik bo'lganligi tufayli soy etagidan Nosir amaki ikkimiz sal yuqoriyoqda past-balando qiyaliklardan yurib bordik.

Chakalakzordagi balchiq va tuproq yo'llarda yirtqichdan hech qanday belgi va nom-nishon yo'q edi. Shu taxlitda ikki kechayu-ikki kunduz yurib vaqtimiz samarasiz o'tdi. Horib-charchab asabiylashganimizdan Do'lanasoy oshuvidagi yumshoq o't-o'lanchalar ustida birpas nafasimizni rostlab oldik. Nosir amaki esa bir-ikki qir narida qamish va chakalakzorlarga nazar tashlab, diqqat bilan kuzatuvni davom ettirardi Bo'rilarining quvvatini tejab, mayda qadamlar bilan qo'yalar yoyiladigan yaylovlarga yaqinroq yo'llarni tanlashi ovchiga anchadan beri ma'lum. U ana shu yo'llarni aniqlab olgach, bir nechta qopqon o'rnatishga kirishdi.

Quyosh endigma botgan, hali borliqqa tun qora pardasini yoyganicha yo'q. Ahyon-ahyonda baland tog' cho'qqisidan bo'ri bolalarining akillashi eshitilib qoladi.

Oyning xira yorug'ida Do'lanasoy oshuvidan o'n-o'n besh qadamcha narida hurpaygancha fermer ta'riflab bergen oq yoldor bo'ri bamaylixotir ketib borardi. Kutilmaganda yirtqich birdan to'xtab, ortiga o'girildi. Uzoqdan bizni ko'rdi shekilli, lekin pisand qilmasdan o'z yo'lida davom etdi. Harqalay ishlarimiz o'ngidan keladiganga o'xshardi.

- To'ppa-to'g'ri yo'ldagi qopqonga borib tushsa-ya, - pichirladim hamrohim Azamat tomon o'girilib.
- Ts-s. Biroz sabr qilaylik-chi.

Keyin ikkalamiz oraliqdagi masofani saqlagan holda, beshotarni qo'lida mahkam tutib yirtqichning ortidan izma-iz yura boshladik. Nosir amaki esa o'ng tomonidan uni bir dam ham ko'zdan qochirmay kuzatmoqda edi. Xullas, shu tun barcha yelib-yugurishlar va urinshlarimiz zoye ketmadi. Ko'pdan tutqich bermay kelayotgan oq yoldor bo'ri oldindi o'ng oyog'idan qopqonga tushgan bo'lsa ham og'riqqa bardosh bergenicha ingramay tik turardi. Ovchi uni miliq qo'ndog'i bilan bir-ikki urchi yiqitdi. Azamat ikkimiz tayyor o'ljani mashina oldigacha sudrab olib kelgunimizcha holdan toyib, bo'larimiz bo'ldi. Ammo qo'ychivonlarning duosini olishga sazovor bo'ldik.